



BADIIY MATNNING STRUKTUR XUSUSIYATLARI

Saidova Rayhonoy Abdug'aniyevna

Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10472624>

Annotatsiya. Ilm sohalari, xususan, adabiyotshunoslikka yangi usul hamda nazariyalar kirib kelmoqda. Ular ilm-fanning asrlar sinovidan o'tgan ishonchli va samarador metod, ta'limotlariga uyg'unlashib, ilmiy tafakkur taraqqiyotini ta'minlashga o'z hissasini qo'shmoqda. Yangi asr boshlaridan milliy adabiyotshunoslik sohasiga asta-sekin bo'lsa-da, kirib kelayotgan strukturalizm va semiotika sohalari yuqorida bayon etilgan fikrimizga dalil bo'la oladi. Ushbu maqola adabiyotshunoslikda tizimli tahlil (struktur-semiotik tahlil) bo'yicha nazariy xarakterga ega bo'lib, badiiy matn tahlilida struktur hamda leksik-semantik xususiyatlarni ochib berishga mo'ljallangan.

Аннотация. В области науки, особенно литературоведения, проникают новые методы и теории. Они способствуют развитию научного мышления, адаптируясь к надежным и эффективным методам и учениям науки, прошедшим проверку веками. Подтверждением нашего мнения, изложенного выше, с начала нового века могут стать области структурализма и семиотики, постепенно входящие в поле отечественного литературоведения. Данная статья носит теоретический характер по вопросам системного анализа (структурно-семиотического анализа) в литературоведении и призвана выявить структурные и лексико-семантические особенности при анализе художественного текста.

Abstract. New methods and theories are entering the fields of science, especially literary studies. They contribute to the development of scientific thinking by adapting to the reliable and effective methods and teachings of science that have passed the test of centuries. From the beginning of the new century, the fields of structuralism and semiotics, which are slowly entering the field of national literary studies, can be a proof of our opinion stated above. This article has a theoretical character on systematic analysis (structural-semiotic analysis) in literary studies and is intended to reveal structural and lexical-semantic features in the analysis of literary texts.

Kalit so'zlar: Badiiy matn, struktural tahlil, leksiya, muallif, semiologik tahlil, bo'lak, matnning cheksizligi, belgi munosabatlari, paradigmatic munosabatlar.

Ключевые слова: Художественный текст, структурный анализ, лекция, автор, семиологический анализ, фрагмент, бесконечность текста, знаковые отношения, парадигматические отношения.



Key words: Artistic text, structural analysis, lecture, author, semiological analysis, fragment, text infinity, sign relations, paradigmatic relations.

Struktural tahlilda matnning badiiy unsurlari va ularning o'zaro aloqadorligini tekshiriladi. Shu tariqa matn tarkibidagi har bir juzv, mucha ayni shu tarkibdagi boshqa qismlar bilan munosabatda o'rganiladi va uning tarkibdagi o'rni hamda vazifasi tayin etiladi. Struktural tahlil quyidagi operatsiyalarni o'z ichiga oladi:

- umumiy matndan muayyan bo'lakni ajratib olish;
- ushbu "bo'lak"ni yondosh yoxud undan oldingi yoki keyingi matnlardan ajratib teshirish;
- tarkib (matn)ni iyerarxik (yuqoridan quyiga yoki muayyan intizom asosida) tarzda tahlil etish.

Badiiy matnga quyidagicha umumiy xulosalarni berib, uni tizimli tahlil qilish orqali butunlikni tashkil etgan qismlar orasidagi belgi munosabatlarni aniqlab olamiz:

-matn(badiiy matn): chek-chegarasi bo'lmagan maydon, u sanob adog'iga yetib bo'lmaydigan belgilarni o'z ichiga oladi. Mazkur belgilar matnning butun hududini qamrab olgan va ular bir - biri bilan turli aloqa - munosabatlarga kirishib matn yaxlitligini ta'min etadi. Badiiy matn nima ekanligini yaqqolroq tasavvur qilish uchun uni badiiy asar bilan muqoyasa etish zarur:

1) badiiy asar moddiydir, ya'ni u ma'lum bir o'lchov, chegara hamda moddiy qiymatga ega. U ko'z orqali ko'riladi va o'qiladi. Matn esa mavhum tushuncha. Uni faqat aql-idroq orqali bilish va anglash mumkin;

2) badiiy asar turg'un xususiyatga ega, zero unga harakat xos emas, bu jihatdan badiiy asarning ziddi bo'lgan matn muttasil harakatlanish xossasiga ega. Matn harakati belgilarning o'zaro munosabatlari orqali amalga oshadi;

3) badiiy asar o'z muallifiga ega, hatto og'zaki ijod namunalarining muallifi xalq deb ko'rsatiladi. Muallif asarning sohibi, mutloq xo'jayini deb qaraladi. Binobarin, asarning yutug'i ham, kamchiliklari ham muallif bilan bog'lanadi. Badiiy matn esa muallifdan xolidir. U mustaqil badiiy tizim bo'lib, o'z qonuniyatlari, mezonlari doirasida yashaydi va faoliyat ko'rsatadi. Muallifni tan olmaydi va unga bo'ysunmaydi. Matnda muallif hokimi mutlaq emas. To'g'ri, aksariyat matnda muallif ishtirok etadi va o'zining ma'lum bir fikr-qarash, g'oyalarini ifoda etadi. Semiologik tahlil jarayonida muallifga matnni yuzaga keltirgan asosiy siymo sifatida emas, balki badiiy matn tarkibidagi obrazlardan biri sifatida qarash lozim. Rolan Bart "Muallifning o'limi" tadqiqotida bu haqda o'z nuqtai nazarlarini bayon etgan.



4) badiiy asar muayyan o'lchovga ega, ma'lum bir nuqtadan boshlanib, qaysidir chegarada yakun topadi. Masalan, g'azal janri namunasini misol tariqasida oladigan bo'lsak, u matla'dan boshlanadi, maqta' bilan intiho topadi. Yoki ruboiy, tuyuq singari janr namunalari to'rt misra hududida mavjud bo'ladi. Gap faqat misra yoxud nasriy asardagi satrlarning miqdoridagina emas. Roman janrini olib qaraydigan bo'lsak, uning biror-bir namunasi badiiy asar sifatida biror tasvir(joy yo tabiat manzarasi, ayrim voqeaning ifodasi kabi) bilan boshlanib, shunga o'xshash boshqa bir tasvir bilan o'z yakuniga etadi. "Matn esa cheksizdir. U na vertikal(tik), na gorizontal(sath bo'ylab) chegaraga ega emas. U yuqori,past va to'rt tomonga qarab intiladi va hech qanday sarhadni tan olmaydi. "Shu nuqtai nazardan uni koinotga mengzash mumkin. Koinotning boshi va adog'i bo'lmaganidek, badiiy matnning ham ibtidosi hamda intihosi mavjud emas".

Matnning cheksizligi uning maydonidagi belgilarning o'zaro aloqa-bog'lanishlari tufayli yuzaga keladi. Badiiy matnning bir o'rnidagi belgi undagi boshqa o'rindagi belgi bilan munosabatga kirishar ekan, matnning hududi kengaya boshlaydi. U rang-tusi, qiyofasini qaysi bir darajada o'zgartirib, boshqacharoq ko'rinish kasb eta boshlaydi. Badiiy mazmun, badiiy konsepsiyada teranlashish yuzaga keladi. Harakat matnni yoshartiradi, u har bir davrning o'z mohiyatiga muvofiq keladigan dunyoqarashlariga muvofiqlashadi. Xuddi shu omilga ko'ra barkamol matn hamma zamonlarning vakillari tomonidan o'zgacha, oldingilardan farq qiladigan talqin va tushunishlarga asos bo'ladi. Jamiyat, ijtimoiy-madaniy tafakkur nechog'lik taraqqiy etmasin, matn eskirmaydi, avvalgididay million-million kitobxonlarni yuksak badiiy jozibasi, insonparvar estetik g'oyalari bilan maftun etaveradi.

Strukturalizm – o'tgan asrning 50-60-yillarida shakllangan fan sohasi. F. De Sossyur ta'limotini badiiy adabiyotga qo'llashga urinish natijasida yuzaga kelgan. Fransuz strukturalizmining yirik namoyandasi Rolan Bart strukturalizmni faoliyat deb hisoblaydi:"Strukturalizm undan foydalanuvchi hamma uchun faoliyat, ya'ni muayyan sohadagi fikriy amaliyotning tartibga tushgan izchilligi sifatida yuzaga chiqadi".Strukturalizm ta'limoti o'zagida "struktura" tushunchasi turadi. Struktura atamasini sodda qilib aytganda, yuksak ichki tartib tarkibidagi intizomdir, deb izohlasak bo'ladi. Struktura tizim tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u tizim qaror topishining tuzilishi va ichki shakli bo'lib, bu shakl mazkur tizim elementlari o'rtasidagi barqaror o'zaro aloqalarning birligi sifatida yuzaga keladi.



“Struktural metodlar –strukturalizm da qo‘llaniladigan usullar majmui. “Ular, asosan, quyidagilardan iborat:

- 1) tahlil uchun badiiy matn namunasini tanlash;
- 2) tanlangan matnni bir necha marta sinchiklab sekin va juda sekin o‘qish va mohiyatini uqishga urinish;
- 3) matn yoki uning ma‘lum bir qismini bo‘lak(leksiya)larga ajratish;
- 4) matn asosida bo‘laklarni raqamlab chiqish;
- 5) tahlil jarayoni(har bir bo‘lakdagi kod(belgi) mufassal, atroflicha ko‘rib chiqiladi, Bu jarayonda qiyosiy usuldan foydalanish mumkin emas, ya'ni bo‘lakdagi kod yoxud kodlar badiiy matndagi yoxud boshqa matndagi kodlar bilan muqoyasa etilmaydi (ammo bu talabga strukturalistlar hamma vaqt rioya etavermaganlar);
- 6) tahlil jarayoni yakunlangach, kodlararo munosabatlar aniqlanadi;
- 7) pirovardda barcha fikrlar umumlashtiriladi, strukturalistlarning ta'biri bilan aytganda, matnning nazariy modeli yaratiladi”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Барт Р.Избранные работы. Семиотика. Поэтика.М.: 1989, С. 254.
2. Meliyev S.Strukturalizm va struktur tahlil haqida.- O‘zbek tili va adabiyoti.- Toshkent. 2009.No2 B12
3. Лотман Ю. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970.
4. S Rayhonoy, G Murodov STRUCTURAL SEMIOTIC ANALYSIS OF A LITERARY TEXT//International journal of scientific and technology research. – 2020. No.2.– С. 3319-3323.
5. Бахтин М.М. Проблема текста. В его кн.: Эстетика словесного творчества.- М.: 1979.
6. Murodov G'. “Yulduzli tunlar” romanida badiiy kodlar. –BuxDU ilmiy axboroti, 2000, 3-son.
7. Saidova R. A. SEMIOTIC SQUARE AND BINARY OPPOSITION //Theoretical & Applied Science. – 2020. No.2.–С. 201-205.
8. Bakhronovna G. R. The Paradigmatic Relationship of the Tree as Well as Water and Fire in Folklore //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2023. – Т. 4. – №. 5. – С. 237-242.
9. Mirjonov N. N. SHIFOBAXSH O‘SIMLIK NOMLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 214-223.
10. Lerich C. T. The Psychologism of the Plays of A. Vampilov //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2023. – Т. 4. – №. 5. – С. 273-277.



11. Abduganievna S. R. The Role of Structural-Semantic Analysis in Literature //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2023. – Т. 4. – №. 5. – С. 250-257.
12. Rayhonoy S., Murodov G. Structural semiotic analysis of a literary text //International Journal of Scientific and Technology Research. – 2020. – Т. 9. – №. 2. – С. 3319-3323.
13. Abdughaniyevna S. R. Semiotics and fiction //International Journal of Recent Technology and Engineering. – 2019. – Т. 8. – №. 3 S. – С. 183-188.
14. Abduganievna S. R. Semiotic Analysis of a Literary Text //International Journal on Integrated Education. – Т. 3. – №. 3. – С. 51-56.
15. Агламов Т. Х. ОСОБЕННОСТИ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ В СОВРЕМЕННОМ ВУЗЕ //Yosh Tadqiqotchi Jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 157-164.
16. Makhmudova S. X., Jumaev R. G. Typical Methods of Using in Language of Linguocultural Units //International Journal of Future Generation Communication and Networking. – 2021. – Т. 14. – №. 1. – С. 4970-4978.

